



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-80-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar vaqtি" dasturi hamda ta'lilda "dolzarb 90 kunlik" tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida

Kattaqo'rg'on tuman hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar vaqtি" dasturi hamda ta'lilda "Dolzarb 90 kunlik" tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida hisoboti muhokama etib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo'rg'on tuman hokimi o'rribbosari O.Shirinovning tumanda "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar vaqtি" dasturi hamda ta'lilda "dolzarb 90 kunlik" tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo'rg'on tuman hokimi o'rribbosari (O.Shirinov), tuman tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov)ga:

- oilaviy poliklinikalar va oilaviy shifokorlik punktlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

- sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni oshirishni tizimli tashkil etish;

- tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligrini oshirish;

- ayollar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni keng qamrovda "mahallabay" tashkil etish;

- aholiga malakali birlamchi, birinchi navbatda kasalliklarni profilaktika qilish masalalarida tibbiy-sanitariya yordamni ko'rsatish;

- tug'riq yoshidagi ayollar, o'smir qizlar, homilador ayollar, bolalar, shuningdek, yolg'iz keksalar, nogironlar, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar hamda o'zgalar ko'magiga va ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar o'rtasida doimiy patronaj ishlarini amalga oshirish;

- tuman tibbiyot birlashmasi moddiy-texnika bazasini yaxshilash vazifasi yuklatilsin.

-har bir oilaviy poliklinika va shifoxonalarning kirish joylarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chaqiriqlar, “Ishonch telefonlari” va boshqa targ‘ibot materiallarini joylashtirish;

-davolash profilaktika muassasalarida ajratilgan shtat bo‘yicha mutaxassislar bilan ta’minlanish holati, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, moddiy-texnika bazasi, bemorlarga yaratilgan sharoitlar, bepul xizmatdan foydalanish darajasi, dori-darmonlar bilan ta’minlanganligi, tibbiyot xodimlari tomonidan ta’magirlikka yo‘l qo‘yilish holatlari, ishga qabul qilish tartibi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratish vazifasi topshirilsin.

3. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi o‘rribosari (O.Shirinov), tuman mакtabgacha va mакtab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (Sh.Sultonov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov) tegishliligi bo‘yicha tumandagi korxona, tashkilot hamda muassasa rahbarlariga:

-ta’limda “dolzarb 90 kunlik” tadbirlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish;

-yozgi ta’til davomida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish maqsadida fan to‘garaklari hamda hunarmandchilik to‘garaklari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

-yozgi ta’til davomida tuman miqyosida zakovat intellektual o‘yinlari, sport musobaqalari va turli ko‘rik-tanlovlар o‘tkazish reja-grafigini ishlab chiqish va ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash ishlarini amalga oshirsin,

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlari o‘zлari saylangan okruglarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish, dori vositalari ta’minoti hamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini doimiy o‘rganib borish, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari mudirlarining hisobotlarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida eshitish jarayonlarida faol ishtirot etsinlar.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov)ga “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar vaqt” dasturi hamda ta’limda “dolzarb 90 kunlik” tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o‘tkazilayotgan tadbirlar hamda targ‘ibot ishlari to‘g‘risidagi tadbirlarni OAV orqali yoritib borish vazifasi yuklatilishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimi o‘rribosari O.Shirinov hamda nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH